

**Valixo'jaev Farruxxo'ja Furqat o'g'li: "O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyaviy jihatdan ta'minlash masalalari" (5A230601- "Davlat moliyasini boshqarish" yo'nalishi)**

**Ilmiy rahbar:** dots. Ataniyazov J

**Tadqiqotning maqsadi:** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish borasidagi muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarishning nazariy asoslari
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini faoliyatini tashkil etish asoslari
  - Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining ahamiyati
  - Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini tashkil etish va boshqarishning (huquqiy asoslari)shart sharoitlari
  - O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini tashkil etish va boshqarishning amaliyoti taxlili
  - Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarishning bugungi kundagi xolati taxlili
  - Kichik biznes korxonalar moliyasini boshqarishda kreditning roli va uning tahlili
  - Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarishni takomillashtirish yo'llari

## Mundarija

Kirish.....	
I- bob. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari moliyasini boshqarishning nazariy asoslari.....	
1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini tashkil etish asoslari.....	
1.2. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining ahamiyati.....	
1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari moliyasini tashkil etish va boshqarishning (huquqiy asoslari)shart sharoitlari.....	
II - bob O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini tashkil etish va boshqarishning amaliyoti taxlili.....	
2.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarishning bugungi kundagi xolati taxlili.....	
2.2. Kichik biznes korxonalar moliyasini boshqarishda kreditning roli va uning tahlili.....	
2.3. “ Orzu ” kichik biznes korxonasini moliyaviy faoliyatini tahlili va uni moliyasini boshqarish.....	
III- bob Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarishni takomillashtirish yo'llari.....	
Xulosa va takliflar.....	
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.....	

## Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Jahon amaliyoti rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanliklarini tasdiqlamoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi va bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham mulkdorlar sinfini vujudga keltirishga yordam beradigan kichik biznes korxonalarini rivojlantirishdir. Kichik biznes jamiyat hayotining barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois O'zbekiston o'zining mustaqilligi asosida yangi iqtisodiy islohotlar yo'lini joriy etish va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini keng rivojlantirib, o'zining qonun-qoidalariga suyangan holda tadbirkor, ishbilarmon va biznesmen kishilarga qulay shart-sharoitlar yaratib berishga intilmoqda.

Korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari mustahkamlanmoqda, bu jarayonga kichik korxonalar va xususiy biznes sub'ektlari tobora keng jalb qilinmoqda.

Bugungi kunda biz uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lmish yurtimizda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarimiz haqida.

2011-yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Buning natijasida bo'shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so'm mablag'ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkoni paydo bo'ldi. 2011 yil «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturini amalga oshirish ishlari natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar umumiy sonining 75 foizga yaqini ishlashi ta'minlanayotganligi qayd etildi. Joriy yil yakunlari bo'yicha ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54 foizni tashkil qildi.<sup>1</sup>

Xususiy tarmoqni rivojlantirish istiqbollari haqida so'z yuritganimizda, biz, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutayotganimizga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Biz aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilishini va u erlarda iqtisodiy turmush tarzi va faollikni oshirish naqadar muhimligini inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan xususiy sektorni, aynan, kichik va xususiy biznes faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

---

<sup>1</sup> И.Каримов “2012 йил ватанımız таракқиетини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” Тошкент “Ўзбекистон” 2012 йил. 35 б

Malakaviy ishni o'rganganlik darajasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyasini boshqarishning muammolari bo'yicha qator taniqli xorijlik iqtisodchi-olimlar, jumladan, Guyda T., Kene F., Klyuzo M., Kolchina N., Kornai Ya., Kraslend K., Lourens Dj., Matuk J., Menvishkov S, Mill J., Molyakov D., Pechler J., Polyak G., Ambarkulov A., Sterlikov F., Speranskiy M., Tyurgo A., Fisher S. va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbek olimlari va mutaxassislaridan Sharifxo'jaev M.Sh., Abdullaev Yo.A., Abdullaeva Sh.A., Abdurahmonov Q.X., Akromov E.A., Boboqulov T., Vohobov A.V., G'ozibekov D.G', G'ulomov S.S., Jumaev N.X., Yo'ldoshev Z.Y., Jamolov X.N., Nosirov E.I., Qosimov R.S., Malikov T.S., Olimjonov O.O., Sobirov H.R., Haydarov N.H., Xo'jamqulov D. va Mamatov B. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyasini boshqarishning hozirgi zamon muammolari masalalari xususida ko'proq ilmiy fikr va mulohazalar bildirganlar.

Bitiruv malakaviy ishni maqsadi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyasini boshqarishning hozirgi zamon muammolarini aniqlash va ularni hal qilish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishida mazkur maqsaddan kelib chiqib qator vazifalar qo'yilgan:

- kichik biznes va xussiy tadbirkorlikni o'zining tuzilishiga ko'ra va ixchamligi sababli yirik korxonalarga nisbatan bozor talablariga tezroq moslashishini o'rganish;

- yangi ish o'rinlarini yaratish yirik korxonalarga qaraganda ko'proq foyda berishi asoslarini o'rganish;

- chet el tajribasiga tayangan xolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tadbirlarini o'rganish;

- "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturini moxiyatini, shuningdek, amalyotga tadbiq etish vazifalarini o'rganish;

- jamiyatda siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi bosh omil - o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bajara olishi;

- iqtisodiy inqiroz sharoitida kichik biznes va xussiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tadbirlarini o'rganish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyasini boshqarish va taxlilini amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyasini boshqarishning hozirgi zamon muammolari va ularni barta'raf etish bo'yicha yordam berishini o'rganishdir.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti, sifatida O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyasini boshqarishning hozirgi zamon muammolarini o'rganish jarayonida vujudga keluvchi munosabatlar maydonga chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyaviy faoliyati va respublikamizdagi makroiqtisodiy statistik ma'lumotlarni o'rganish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va xorijda hamda respublikamizda ma'lum olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Ishni yozishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyruqlaridan, yo'riqnomalaridan hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan.

1- bob Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari moliyasini boshqarishning nazariy asoslari

1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish asoslari

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat"<sup>2</sup> - deb ta'riflanadi.

Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi. Shunday qilib, tadbirkor to'la yoki qisman moddiy mablag'iga yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini (biznesini) tashkil qilish uchun ishga soladi. Uning tomonidan bunyod etilgan firma (tashkilot, shirkat, korxon) davlatimizdagi taraqqiy etayotgan kichik biznesning bir qismiga aylanadi<sup>3</sup>.

«Tadbirkor» va «biznesmen» kabi tushunchalar ularning iqtisodiy faoliyat sohaları ko'rilayotganda ma'nodosh deb hisoblanmaydi. «Biznes» tushunchasi «tadbirkor»dan ancha kam ma'noga ega deb qaraladi. G'arb davlatlarining bozor iqtisodiyoti haqidagi adabiyotlarida, biznes-jamiyatning talab va xohishlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish tizimi, deb tushuntiriladi.

Biznes bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari orasidagi munosabatlarni qamrab oladi va faqat ishbilarmonlarning emas, balki iste'molchilarning, yollangan ishchilarning,

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида"ги қонуни. 2000. 25 май. 3-модда

<sup>3</sup> Собиржанова Д., Бойматова У. Хусусий ва кичик бизнес менежменти, Ўқув қўлланма. Тошкент. "Иқтисод-Мoliya"-2007

davlat tizimi xizmatchi-larining ham xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu holatda, biznes so'zining sinonimlari bo'lib, ma'lum ma'noda tijorat, savdo-sotiq kabi tushunchalar hisoblanadi. Umumiy ko'rinishda biznes bu–kishining bozor munosabatlari tizimidagi ishchanlik faolligidir.

Har qanday yangi shirkatning ochilishiga insonning o'z hayot tarzini keskin o'zgartirishi va ishbilarmon bo'lishga ishtiyoqi sabab bo'ladi. Bu kabi qaror aniq vaziyatdan kelib chiqib qabul qilinadi.

O'z ishini tashkil qilishda ustuvor sabab bo'lib, inson o'zining jamiyatdagi iqtisodiy, moddiy va ijtimoiy holati (mavqei)ni yaxshilash, o'zining va oilasining hayoti farovonligini oshirish uchun intilishi hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatiga turtki bo'ladigan boshqa sabablar qatoriga shaxsning o'zini ko'rsatishga, xalqning moliyaviy resurslaridan bir qismini, qo'shimcha mehnat va boshqa resurslarni xo'jalik jarayoniga jalb qilishga imkon borligi, fuqarolarning qonuniy ravishda o'z daromadlarini oshirishga, qo'shimcha daromad keltiruvchi faoliyat turi bilan astoydil shug'ullanishga imkon borligi kabi omillarni qo'shish mumkin.

I.A.Karimov tomonidan olg'a surilgan barcha tashkiliy, iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy asoslar tadbirkorlikning bosh maqsadi iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uni kelgusida yuqori sur'atlar bilan rivojlantirishga qaratilgan.

*Xususiy tadbirkorlik* - xo'jalik yuritishning shunday tashkiliy-huquqiy shakli, unda mulk egasi bitta shaxs yoki oila bo'ladi va faoliyatdan kelgan daromadni (turli to'lov va soliqlar to'langanidan keyin) hammasiga egalik qiladi, qolaversa, biznesdagi xavf-xatar va tavakkalchilik uchun yakka o'zi javob beradi.

Tadbirkorlikning ushbu shakli chakana savdoda, umumiy ovqatlanish sohasida, maslahat sohasidagi biznesda, maishiy xizmatda, fermerchilikda, tibbiyotchilik amaliyotida va hunarmandchilikda ko'proq uchraydi. U ikki xil ko'rinishda tashkil qilinishi mumkin: a) individual–ya'ni korxonalar tashkil qilmasdan va b) xususiy korxonalar–ya'ni yuridik shaxs tashkil qilgan holda.

Xususiy tadbirkorlikning afzalliklari:

- ishni tashkil qilishdagi oddiylik, to'la mustaqillik, harakatdagi erkinlik va tezkorlik. Tadbirkor biror qaror qabul qilishida yuqori tashkilotlarga murojaat qilishining yoki sheriklar roziligini olishining zarurati yo'q;

- ishga qiziqtiruvchi sabablarning ko'pligi, chunki barcha foyda faqat mulkning yolg'iz egasiga kelib tushadi va u ko'proq ishlashga rag'batlanadi, ish ustidan kerakli nazorat o'rnatish, ehtiyotlik bilan qaror qabul qilish va ish ko'lamini yanada kengaytirishga intiladi;

- konfidentsiallik (ishdagi maxfiylik) saqlanadi. Ba'zi bir biznes turlarida maxsus uslub, yo'llar, texnologiyalar tadbirkorlik faoliyatining asosiy boyligini (kapitalini) tashkil qiladi. Xususiy tadbirkorlik maxfiylikni saqlashga imkon yara-tadi;

- xususiy tadbirkorlikda uning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish nisbatan engil ko'chadi (masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tuzish).

Xususiy tadbirkorlikning kamchiliklari:

- zaif moliyaviy poydevorga egaligi. Bu katta miqdordagi kapitallarni jalb qilishdagi qiyinchiliklarga sabab bo'ladi;

– xo'jalik faoliyatida xavf-xatar va tavakkalchilik yuqori darajada bo'lganligi sababli faoliyat davomiyligining noaniqligi;

– barcha xo'jalik faoliyati uchun cheklanmagan javobgarlikning hukm surishi;

– yakka xo'jalik mulkining mulkni boshqa shaxsga (masalan, boshqa oila a'zolariga) berishda noqulayligi, ixcham emasligi;

– mulk egasining o'limi, mehnatiga noloyiq bo'lib qolishi yoki ishdan chetlanishi hollari yuz berganda yakka xo'jalik mulki tarkibini saqlab qolish mushkulligi.

Yuqorida keltirgan kamchiliklarni bartaraf etish niyatida ishbilarmonlar mol-mulki, kasb yoki kapitallarini qo'shib birlashadilar.

Davlatning iqtisodiyotga, shu jumladan, kichik biznes taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi davlat tomonidan shu sohaga taalluqli qonunlar yaratilishi bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Tadbirkorlik to'g'risi-da», «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish», «Korxonalar to'g'risi»da, «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish» to'g'risidagi qonunlar shu yo'lda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasidir. Jumladan, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunda bu faoliyat bilan, ayrim kategoriyadagi shaxslardan tashqari barcha, jismoniy va yuridik shaxslar shug'ullanishi mumkin, deyilgan. Davlat idoralari va boshqaruv muassasalarida ishlovchilar, shuningdek, prokuratura va sud mahkamalari xodimlarining tadbirkorlik bilan shug'ullanishi ma'n etilgan. Shuningdek, qonunda korxonalar rahbari (yoki ish boshqaruvchilari–menejerlar) tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik, u mulkni boshqarish sohasida mulk egasi bilan bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan va tadbirkorlar uchun belgilangan javobgarlikni o'z bo'yniga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov kichik biznesni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratib “yaqin besh-o'n yil ichida ushbu sohada yalpi ichki mahsulotning 50-60 foizini ishlab chiqarishga erishish” vazifasini qo'yadi hamda “bu sohani rivojlantirish aholini ish bilan ta'minlash va uning daromadlari o'sishining eng muhim manbalaridan biriga aylanishi lozim” ekanligi va “mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning poydevori bo'lgan kichik va o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirishdan iborat”ligini uqtirib o'tadi. Shu bilan birga “xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash”<sup>4</sup> ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlaydi.

Xususiy tarmoqni rivojlantirish istiqbollari haqida so'z yuritganimizda, biz, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutayotganimizga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy tarmoq, odatda, kichik biznes, tadbirkorlik hamda xizmat ko'rsatish sohalarida rivojlanadi. Bunday davlatlarda

---

<sup>4</sup> И.А. Каримов. Бизнесинг бош мақсадимиз – жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. “Солиқлар ва божхона хабарлари”, 2005 йил 31 январь, 5-сон, 5-б.

xususiyl tarmoqlning YaIMdagi ulushi 50-60%ni tashkil etadi. Mehnat bilan band bo'lgan aholining 65-70%i esa, aynan, mana shu sohada faoliyat ko'rsatadi. Shu bois biz aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilishini va u erlarda iqtisodiy turmush tarzi va faollikni oshirish naqadar muhimligini inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan xususiyl sektorni, aynan, kichik va xususiyl biznes faoliyatini rivojlantirish naqadar zarur ekanligini anglab etish qiyin emas.

Hozirgi davrda tadbirkorlik butun bir ijtimoiyl-iqtisodiy voqelik bo'lib, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning jamiyat hamda vakolatli organlar bilan iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning ko'p qirrali shakllarini qamrab oladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi esa jamiyatning turli ehtiyojlarini ta'minlovchi, qondiruvchi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, "tadbirkorlik" va "biznes" tushunchalariga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, quyidagilarni bayon qilish mumkin. Biznes tadbirkorlikka qaraganda ancha keng ma'noga ega. Tadbirkorlikda - foyda (daromad) olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish asosiy shart hisoblansa, biznes tushunchasi ushbu munosabatlar bilan birga o'z mulkini ijaraga berish, pulini bankka qo'yish, aktsiyalarga dividendlar olishni ham o'zida aks ettiradi. Tadbirkorlik biznesning asosiy unsuri, uning asosiy negizi hisoblanadi. Tadbirkorlikning shakllanishi, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi biznesni tashkil etish uchun xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi. Biznes bozor iqtisodiyotining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi va nafaqat ishbilarmonlarning, balki iste'molchilarning, yollangan ishchilarning, davlat tizimi xizmatchilarining ham xatti-harakatlarini o'zida mujassam etadi<sup>5</sup>.

"Tadbirkorlik", "biznes", "xususiyl tadbirkorlik", "kichik biznes" tushunchalari ko'pincha bozor iqtisodiyotiga bog'langan holda, uning unsurlari, unda samarali faoliyat yuritish vositalari sifatida talqin etilmoqda. Ayni chog'da, bu tushunchalar umumiqtisodiy, umumbashariyl tushunchalardir, zero insoniyat va uning ehtiyojlarini qondirish zaruriyati vujudga kelibdiki, o'z harakatidan, faoliyatidan, boshqalar bilan bo'lgan munosabatlari va bog'liqliklaridan ko'proq, yaxshiroq, oldingidan durustroq natija (samara) olishga intilib kelingan. Biroq, bu faoliyatlarning amalda keng qo'llanilishi, yanada rivojlanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida kengroq, ommaviyroq namoyon bo'la boshladi.

---

<sup>5</sup> Маматов Б. Носиров Э. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik лойихаларини молиялаштириш. ТМИ – 2007. 150 б.



## 1.2. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining ahamiyati

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan band etishi va o'rta sinfni shakllantirishi kabi xususiyatlari xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, kichik korxonalar iqtisodiy rivojlanish, ilmiy-texnika ixtirolarini, aholining talabini qondirish uchun qo'llashda istiqbollidir. Boshqarish sohasida kichik korxonalarda eng kam xarajat qilinishi bilan birga mulk haqiqiy egasining qo'lida bo'lib, undan foydalanish, ko'paytirish doimo yaxshi natijalarga olib kelgan.

Kichik biznes sub'ektlarining imkoniyatlari cheklanganligi ularning asosiy xususiyatidir.

Kichik biznesning yuqorida ta'kidlab o'tilgan xususiyatlari bozor munosabatlarining shakllanishi va taraqqiy etishi sharoitida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan kichik va xususiy biznesni har tomonlama rivojlantirish zarur. Ularni tashkil etish, ro'yxatga olish va moliyalashtirish masalalarida qulay shart-sharoitlar yaratish kerak. Kichik biznes sub'ektlarining to'la erkinligini ta'minlash va ular faoliyatini rag'batlantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator Farmonlarida yuqorida bildirilgan fikrlar to'la ma'noda o'z ifodasini topgan.

Jumladan, 2003 yil 17 dekabrda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi Kengashining majlisida "2004-2005 yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi"ga muvofiq mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini oshirish, xususiy tadbirkorlikka asoslangan korxonalarining sonini ko'paytirish, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini yaqin 5-10 yil ichida 50-60 foizga etkazish hamda tadbirkorlikni fuqarolarning asosiy daromad manbaiga aylantirish kabilar belgilab olindi. Shuningdek, 2011 yil 4 aprelda qabul qilingan "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni va 2011 yil O'zbekiston Respublikasida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinib, davlat dasturi qabul qilinganligi xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi va ahamiyati oshishini ta'minlaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiyoti tajribalarini o'rganish uning tarkibiy tuzilishida quyidagilarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- davlat mulkini xususiylashtirish yo'li bilan kichik korxonalarni barpo etish (chakana savdo, maishiy xizmat korxonalari va pulli xizmat);
- kichik biznes korxonalari (savdo-vositachilik korxonalari) tashkil etish;
- monopoliyani tugatish va yirik tuzilmalardan kichik biznesni ajratib olish (uy-joy va kommunal xo'jalik);
- yakka tartibdagi mehnat faoliyatini rivojlantirish va mikrofirmalar, oilaviy pudratni shakllantirish; dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tasniflash bo'yicha AQShning Kichik biznes ma'muriyati ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyati va boshqa omillarga qarab har bir tarmoq uchun ishchilar soni tarkibini belgilagan. Shu bois AQShda kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tabaqalashtirilgan holda amalga oshirishga imkon beradi. Yaponiyada ustav kapitali hajmi va bandlik soni mezonlari korxonalarining tarmoqdagi (ulgurji savdo, chakana savdo, sanoat, qurilish) faoliyatiga qarab belgilanadi. Albatta, bu mezonlar har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini tasniflashda ishchilar soni yagona mezon hisoblanadi va bu borada o'tgan davr ichida anchagina o'zgarishlar ro'y berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risda"gi Farmoniga muvofiq xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan ro'yxatdagi xodimlar soni ko'rsatkichini yagona va belgilovchi mezon qilib ajratib ko'rsatildi (2004 yilning 1 yanvariga qadar kichik va o'rta biznes sub'ektlari ishchilar soniga qarab yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirma, kichik va o'rta korxonalaridan iborat edi).

2004 yilning 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi Farmoniga binoan o'rta korxonalar kichik biznes toifasiga kiritilishi bilan uning tarkibi kengaydi. Shu munosabat bilan kichik biznes sub'ektlariga amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan soliq imtiyozlari va preferentsiyalar tatbiq etildi. Mazkur Farmonga muvofiq korxonalar tasnifi quyidagicha belgilab berildi:

- engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida - 100 gacha;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida - 50 gacha;


- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda - 25 gacha bo'lganlar kichik korxonalar deb yuritiladi;

- ishlab chiqarish tarmoqlarida - 20 gacha, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda - 10 gacha, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida - 5 gacha bo'lganlar mikrofirma, deb yuritiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, avvalo, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishdagi ulushi, yangi ish o'rinlarini tashkil etishi, shuningdek eksport va import faoliyatida ishtiroki darajasi bilan belgilanadi.

-rasm

Kichik biznes korxonalarida band bo'lganlar soni, ming kishi



Manba: Prezidentimiz I. Karimov ma’ruzalari asosida tayorlandi.

- rasm ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, kichik biznes korxonalarida band bo’lgan ishchilar soni 2003 yilda 4162.5 ming kishini tashkil qilgan bo’lsa, 2011 yilga keli ularni soni 7703,1 ming kishiga etgan

Shu jumladan. 2011 yilda mamlakatimizda umumiy ish o’rinlarining 673 mingdan ziyodi yoki 68 foizi kichik biznes sohasi va fermer xo’jaliklariga, 210 mingdan ortig’i kasanachilik sohasiga to’g’ri keladi.

2011 yilga mo’ljallab qabul qilingan va mamlakatimiz Parlamenti tomonidan ma’qullangan Respublika dasturiga asosan 950 mingdan ortiq yangi ish o’rnini asosan qishloq joylarda yaratildi.

Bu ish joylarining 673 mingdan ziyodini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ochish mo’ljallanmoqda. 73 mingdan ortiq ish o’rni transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish natijasida tashkil etiladi. Kasanachilikni, avvalo, mehnat shartnomalari bo’yicha korxonalar bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bandlikni ta’minlashning muhim yo’nalishi bo’lib qoladi va bu qariyb 220 ming kishini ish bilan ta’minlash imkonini beradi<sup>6</sup>.

Yaponiyada barcha kompaniyalarning 99,6 foizi, sotilgan mahsulotning 55 foizi va sanoatda band bo’lganlarning 80 foizi kichik va o’rta korxonalar ulushiga


<sup>6</sup> Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққийтини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. Халқ сўзи газетаси. 2011 йил 24 январ.

to'g'ri keladi<sup>7</sup>. Bunday yuqori ko'rsatkichlar ko'pchilik tadbirkorlarning kichik biznesga jalb etilganligidan dalolat beradi. Yaponiyada kichik biznes sohasi juda ko'p korxonalarni (oila ko'rinishidagi uy xo'jaligidan boshlab to zamonaviy texnikalar bilan qurollangan firmalar) qamrab oladi. Aytish joizki, mazkur davlatlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rniga asrimizning 70 yillarida munosib baho berib, unga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilib kelingan.

O'zbekistonda mustaqillikdan keyin bu sohaga bo'lgan e'tiborning kuchayishi va bevosita davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2011 yil yakunlari bo'yicha 54,0 foizni tashkil etdi.

- rasm

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi, foizda



Manba: Prezidentimiz I. Karimov ma'ruzalari asosida tayorlandi.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bizning bu boradagi eng katta yutug'imiz yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ko'paygani hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda uning roli sezilarli darajada oshganida namoyon bo'lmoqda.

2003 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 35 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 54,0 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar

<sup>7</sup> Цветова И. Опыт Японии: политика стимулирования малого бизнеса, /Инвест-вести/, 1999. №10-11. – С. 18.

sinfni, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati uning quyidagi qator xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- kichik biznes korxonalarini o'zining tuzilishiga ko'ra va ixchamligi sababli yirik korxonalariga nisbatan bozor talablariga tezroq moslashadi;

- ikkinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratish yirik korxonalariga qaraganda ko'proq foyda beradi;

- uchinchidan, jamiyatda siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi bosh omil-o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bajara oladi;

- to'rtinchidan, raqobat muhitini yuzaga keltiradi hamda iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi o'zaro aloqani yaxshilashi bilan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining samarali taqsimlanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda kichik biznes va xususiy korxonalarini sonining o'sishi, rivojlangan infratuzilma, davlatning faol qo'llab-quvvatlashi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarni hal qilish hamda aholi bandligini ta'minlashning muhim omilidir.

### 1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini tashkil etish va boshqarishning shart sharoitlari

Iqtisodiy tub burilishlar davriga qadar korxonalar rejali iqtisodiyot sharoitida o'zlarining ishlab chiqarish - moliyaviy faoliyatini ma'muriy buyruqbozlik tamoyillariga tayanib yuritib keldi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi korxonalarini iqtisodiyotning ob'ektiv qonuniyatlariga buysongan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishga majbur etadi. Darhaqiqat, boqimandalik, xo'jasizlik, mas'uliyatsizlik va korxonalar miqyosida qabul qilinayotgan qarorlarning natijalari bilan hisoblashmaslik ruhi avj olgan sharoitda eskicha xo'jalik yuritish mumkin emas edi.

Bunday holatda davlat korxonalarini ushlab turish va ularni moliyalashtirish mushkul vazifalardan hisoblanadi. Shu tariqa katta salmoqqa ega bo'lgan davlat korxonalarini xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni boshlandi. Xususiy lashtirilayotgan davlat korxonalarini turli mulkchilik shakllari ko'rinishida barpo etilib, o'z navbatida davlatni mamlakat ishlab chiqarishidagi hajmi qisqarib, uning o'rniga nodavlat sektori ishlab chiqarishi ulushi ortib borishiga olib kelmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan taklif etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da hozirgi kunda yurtimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektor ta'minlayotgani qayd etilgan. Shu munosabat bilan 1991 yilda qabul qilingan "Davlat tasarrufidan

chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonunni bugun qayta ko'rib chiqish va unga qo'shimchalar kiritish talab etilmoqda.<sup>8</sup>

Xususiylashtirishni kengaytirish, kichik biznes, fermer xo'jaliklari va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida tub burilishga erishildi.

Keyingi yillarda davlat korxonalarini butunlay, shuningdek, davlat aksiya paketlarini asosan xususiylashtirilgan mulkdorlarga sotish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan kichik biznes va xususiylashtirish korxonalarini boshqarish xam o'ziga xos xususiylashtirilgan ega. Ushu soxa bo'yicha yaratilayotgan adabiyotlarda, ularning moliyaviylashtirish faoliyatini boshqarishga ko'p xam e'tibor berilmaydi. Lekin barcha korxonalarda balans yuritish tizimining yagonaligi (yuridik maqomiga ega bo'lmagan xususiylashtirish tadbirkorlardan tashqari) tufayli, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nuqtai nazaridan o'rganishga qaror qildik.

Korxonalarda samarali ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, kam xarajat sarflagan holda, yuqori foyda olish aynan boshqaruv munosabatlari bilan bog'liq tadbirlardir.

“Boshqaruv” degan so'z, bu albatta qarorlar qabul qilish degan tushunchani anglatadi. Boshqaruv inson faoliyatining barcha sohalariga xosdir. Shuningdek, boshqaruv ilmining muhim sohalaridan biri moliyaviylashtirish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Korxonalar moliyasini boshqarish - korxonaning moliyaviylashtirish faoliyatini boshqarish sifatida, realizatsiyadan tushgan tushum va uning taqsimot ob'ektlari, moliyaviylashtirish boshqaruvning asosiy ob'ektlari hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiylashtirish tadbirkorlik korxonalarida asosiy faoliyat sohalaridan biri moliyaviylashtirish menejment hisoblanadi. Moliyaviylashtirish menejment-korxonalarda moliyaviylashtirish resurslar va kapitalarni boshqarish demak. Moliyaviylashtirish menejment – korxonalar moliyaviylashtirish boshqaruvining tugal maqsadlarga erishishga qaratilgan tadbirlari tizimi. L.Pavlovaning ta'kidlashicha, «moliyaviylashtirish menejment - bir tomondan aniq qonuniylashtirishlar va muayyan ahamiyatga ega bo'lgan boshqariluvchi tizim, ikkinchi tomondan esa – korxonalar umumiy boshqaruv sohasining bir qismidir»<sup>9</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, moliyaviylashtirish menejment boshqaruvchi va ayni vaqtda boshqariluvchi bo'lib ham maydonga chiqmoqda.

Boshqaruv tizimi sifatida menejment boshqaruv sub'ekti va ob'ekti bo'lishi mumkin. Korxonada boshqaruv sub'ekti sifatida moliya xizmatining mutasaddi xodimlari yoki korxonalar pul muomalasini tashkil etuvchi xodimlar kiradi. Moliyaviylashtirish faoliyat boshqaruvning turli ierarxik pog'onalarida turgan, xizmatchilar va ijrochilar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Modomiki, kichik biznes boshqaruv funktsiyalarining chuqur taqsimlanishini taqozo etmas ekan, moliyaviylashtirish menejment sub'ekti sifatida korxonalar rahbari va buxgalteri ishtirok etishi mumkin. Yirik korxonalarda moliyani boshqarish uchun maxsus bo'limlar - moliyaviylashtirish xizmatlar va direktsiya tuziladi. Moliyaviylashtirish direktor (moliyaviylashtirish masalalar bo'yicha vitse-prezident) - bosh mas'ul moliyachi. Moliyaviylashtirish boshqaruvning funktsiyalari, shuningdek moliyaviylashtirish menejer, bosh buxgalter, ma'muriylashtirish direktor, moliyaviylashtirish-

---

<sup>8</sup> Манба: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

<sup>9</sup> Павлова Л.Н. Финансовый менеджмент. –М.: Банки и биржи, 1995. С.65

savdo xizmati rahbari, g'aznachi, boshqa vakolatli xodimlarga topshirilishi mumkin.

Moliyaviy menejmentda boshqaruv ob'ektlariga korxonaning pul aylanmasini tashkil etuvchi pul tushumlari va to'lovlar kiradi. Boshqariladigan pul oqimi korxonada pul mablag'larining oqib kelish va oqib ketishidan iborat bo'lgan berk tsiklini aks ettirib, uning qiymati sotish hajmiga, kreditorlik va debitorlik qarzdorlikka, zaruriy zaxiralarga, kapital tarkibiga, moliyaviy resurslar va h.k.larga bog'liq bo'ladi. Korxonada pul mablag'larining oqimlari aniq manbalar: xususiy kapital, zayom vositalar, boshqa passivlarga ega. Vositalarni ishlatish yo'nalishlari turli aktivlarni tuzishni taqozo etadi.

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida daromadlarini ko'paytirish va undan samarali foydalanishda, uning moliyasini boshqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarining qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi bilan bog'liq tadbirlar natijalarini 1-jadval orqali kuzatish mumkin (1-jadval).

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlari qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi<sup>10</sup>

Ruxsat berish bilan bog'liq jarayonlar turlari	To'lov miqdori				To'lov miqdorining qisqarishi, foizda
	Avval amalda bo'lgan		Yangi kiritilgan		
	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so'mda	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so'mda	
Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish	5	140200	2	56080	- 60
Bankda hisob raqamini ochish	1	28040	0,5	14020	- 50
Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish	40	1120000	10	280400	- 75
Er uchastkasini rasmiylashtirish	-	130000	-	58000	- 56
Ekologik ekspertiza	25	701400	1	28040	- 96
Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish	10	280400	3	84120	- 70
Qurilish davomida nazorat-ijro s'emkalari o'tkazish	5	140200	3	84120	- 40
Normativ loyihalarining ekologik ekspertizasini o'tkazish	75	2103000	1	28040	- 98,7
Gigienik sertifikatlar olish	10	280 400	3	84 120	- 70
Jami to'lovlar qiymati (litsenziya va ruxsatnomalarsiz)	-	5037660	-	830960	- 83,5

-jadvaldan ma'lum bo'lishicha, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirish va to'lovlarni optimallashtirish tadbirlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Masalan, normativ loyihalari ekologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha to'lov miqdori 75 marta va ekologik ekspertiza qiymati 25 marta kamaytirilgan. Natijada, har bir tadbirkorlik sub'ekti uchun o'z

<sup>10</sup> Изох: энг кам иш хақи миқдори тўловларини қискартиришга оид меъёрий ҳужжатлар қабул қилинган даврга нисбатан олинган.



faoliyatini tashkil etishda o'rtacha 4,2 mln so'mgacha mablag'larni tejash imkoniyati paydo bo'ldi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida xam boshqariladigan tizim hisoblanuvchi moliyaviy menejment sezilarli ravishda davlatning soliqlar, baho, ish haqi va boshqa vositalari orqali ta'sir etilishi mumkin bo'lgan soha hisoblanadi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. Hurmatli, Prezidentimiz ushbu borada o'tgan yili "Tasdiqlangan davlat byudjetida yalpi soliq yukini 1,2 foizga, kichik biznes sub'ektlari va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovini esa 2010 yildagi 7 foizdan 2011 yilda 6 foizga tushirish mo'ljallangan"<sup>11</sup>.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bqyicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek pensiya, yo'l va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalariga majburiy ajratmalar summalari alohida to'lanmaydi.

Yagona soliq to'lovi faqat kichik biznes sub'ektlari – mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

- 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlar mustasno;
- 2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:
  - savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
  - xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar;
  - lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar<sup>12</sup>.

Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq. Jumladan, 2011 yilda yuridik shaxslar uchun daromad solig'i 9 foizgacha, mikrofirmalar va kichik biznes uchun yagona to'lov 6 foizgacha tushirilgani buning amaliy tasdig'idir.


- rasm

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun belgilangan soliq stavkalari (foizda)**

---

<sup>11</sup> Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. Халқ сўзи газетаси 2011 йил 24 январ.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Қонуни "Солиқ кодекси" тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2007 йил, 52-сон, (I).



Manba: Prezidentimiz I. Karimov ma’ruzalari asosida tayorlandi.

Moliyaviy menejer, uningdek, korxonada pul aylanmasining ob’ektivlik darajasi va ular aylanuvchanligini tezlashtirishning mavjud rezervlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Korxonada aylanma vositalari aylanishini tezlashtirish rezervlarini qidirib topish ularning aylanish jarayonidagi o’tish bosqichlarini ochib berish orqali amalga oshiriladi. Pul oqimlarini samarali boshqarish uchun moliyaviy menejer korxonada pul aylanmasi zamonaviy tizimining samarali ishlashini ta’minlashi kerak.

Korxonada pul aylanmasini kompleks boshqarish - me’yorlar va limitlarga asoslanish, hisobotlarning avtomatlashtirilgan tizimi, moliyaviy-iqtisodiy ma’lumotlarni olish va qayta ishlov berish, moliyaviy tahlil va hisob kitoblar, bo’sh turgan qo’shimcha pul va moddiy resurslar hamda pul aylanmasini optimallashtirishni amalga oshiruvchi variantli hisoblar va ularga ishlov berish jarayonlarini aks ettiradi.

Korxonada pul aylanmasining davomiyligi va samaradorligini boshqarish tizimining eng muhim moliyaviy bosqichlari: ishlab chiqarish va mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlarini amalga oshirish tizimi va uni me’yoriy boshqarish bazasi (ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish bo’yicha korxonaning moliyaviy siyosati); avanslangan pul vositalarini qidirib topish va to’plash monitoringi, ya’ni debitor qarzdorlik tizimi (korxonaning kredit siyosati); korxonaning vaqtincha bo’sh turgan pul vositalarini avanslash tizimi (pul vositalarining bo’sh qoldiqlarini boshqarish); bloklarda jarayonlarning borishi va parametrlaridagi farqlar to’g’risida moliyaviy xabar berish tizimi (pul vositalari aylanmasi ustidan ichki nazorat) hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ustav fondini shakllantirishda, ta’sischi tomonidan ulush sifatida kiritilayotgan, moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarining haqiqiy tannarxi, amaldagi qonunchilik doirasida pul

qiymatida o'zaro kelishilgan narxda belgilanadi. Korxonada moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini qaytarmaslik sharti bilan bepul olganda, ularning bahosi o'sha paytdagi bozor narxida baholanadi. Boshqa hollarda, moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olish bahosi konragentning balans qiymatida baholanadi.

Shunday qilib, xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida xam moliyaviy menejer, o'z ish faoliyatini ko'ngildagidek tashkil qilsa, ushbu korxonaning moliyaviy faoliyati yaxshilanib daromad manbalarining oshishiga xizmat qilishi mumkin.

2 - bob O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini tashkil etish va boshqarishning amaliyoti taxlili

2.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarishning bugungi kundagi xolati taxlili

“Mamlakatimizda 2011 yilning Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili, deb e'lon qilinishi barchamizning zimmamizga qanday ulkan mas'uliyat yuklashi, bu borada tayyorlanayotgan umumdavlat Dasturini hayotga tatbiq etish bizdan qancha kuch va mablag'larni safarbar etishni talab qilishi haqida bugun gapirib o'tirishning, o'ylaymanki, zarurati bo'lmasa kerak, biz hammamiz, “mana shu zalda o'tirganlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini

o'shishda qanchalik o'ta muhim rol o'ynashini albatta chuqur anglaymiz"<sup>13</sup>. „- deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Shu munosabat bilan iqtisodiyotning ushbu sohasi yurtimizda qanday katta sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini yuqorida qayd etib o'tdik. Bu o'rinda 2011 yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54 foizga etishi ushbu sohani mamalakat iqtisodiyotida tutgan yuqori o'rnini belgilab beradi.

2011 yilda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga maxsus kvotalar ajratish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishini kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqishi va amalda qo'llashi, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish yo'lga qo'yildi.

Markaziy bank tijorat banklari bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar berish ko'lamini kengaytirishi natijasida 2011 yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning ushbu sektoriga ajratiladigan kreditlar hajmini kamida 1,3 barobar ko'paydi.

O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan hamkorlikda Investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha hujjatlari tayyorlashni moliyalashtirish jamg'armasini tashkil qilishini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini biznes reja va investitsiya loyihalarini ishlab chiqishlari uchun qulayliklar yaratdi, ya'ni kichik biznes sub'ektlarining biznes rejalarini tayyorlash sarf-xarajatlarini kamaytirish, ularning sifatini oshirish va kreditlar berish muddatlarini qisqartirish imkonini berdi.

Respublikamizda kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizm va sharoitlarni tug'dirilishi kichik korxonalar uchun tashqi savdo operatsiyalarini rasmiylashtirishdagi ortiqcha ichki protseduralarni bartaraf etilishi, kichik biznes sohasi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini yanada oshirdi. Shuni tan olish kerakki, har qanday kichik korxonalar ham o'z mahsulotlari bilan tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqa olish imkoniyatlari juda past. Chunki buning uchun katta sarf-xarajatlar kerak bo'ladi, xorijiy mamlakatlar bozorining holati va qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlari haqida etarlicha axborot va bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Bu borada Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi "O'zstandart" agentligi va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda kichik biznes korxonalariga tashqi bozorlarda o'z mahsulotlarini sotishga ko'maklashadigan, marketing xizmatlarini tashkil etishi, hamda sertifikat va ruxsatnomalar olishni rasmiylashtirishni soddalashtirilishi tadbirkorlarga yanada qulayliklar yaratdi.

2011 yilga mo'ljallab qabul qilingan va mamlakatimiz Parlamenti tomonidan ma'qullangan Respublika dasturida 950 mingdan ortiq yangi ish o'rnini asosan

---

<sup>13</sup> Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фарвонлигини оширишга хизмат қилади. Халқ сўзи газетаси. 2011 йил 24 январ

qishloq joylarda yaratish ko'zda tutilgan edi va bu dastur amalga oshirilishi natijasida qishloq joylarida ish bilan band bo'lganlar soni keskin oshdi.

Bu ish joylarining 600 mingdan ziyodini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ochish mo'ljallanmoqda. 73 mingdan ortiq ish o'rni transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish natijasida tashkil etildi. Kasanachilikni, avvalo, mehnat shartnomalari bo'yicha korxonalar bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bandlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi bo'lib qoldi va bu qariyb 220 ming kishini ish bilan ta'minlash imkonini berdi.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz tadbirkorlari qonunchilik bazasining muntazam takomillashtirilayotgani bois xalqaro normalarga mos keladigan katta ish tajribasiga ega bo'ldi.

Bu borada O'zbekistonda ishlab chiqilayotgan xususiylashtirishga oid aniq dasturlarga ko'ra, investitsiya kiritish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega zamonaviy, ekologik ishlab chiqarishlarni yoki xizmat ko'rsatish va servis ob'ektlarini, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish sharti bilan davlat aktivlarining to'g'ridan-to'g'ri muayyan investorlarga berilayotgani e'tiborga molik.

Davlat aktivlarini sotishdan ko'zlangan strategik maqsad to'g'ri ekanini korxonalarini boshqarayotgan investorlarning faoliyati natijalari ham tasdiqlamoqda. Singapurning «Indorama Industry Pte Ltd» kompaniyasining qurilishi tugallanmagan «Qo'qon to'qimachilik kombinati» davlat korxonasini sotib olgani bunga yorqin misol bo'la oladi. Investor korxonani qurilishini oxiriga etkazish va unga 2010-2013 yillarda yirik mablag' sarflash majburiyatini o'z zimmasiga olgan.

2013 yil oxirida yangi yigirish texnologiyasini joriy etish hisobidan korxonani loyiha bo'yicha yiliga 16-20 ming tonna paxta tolasini qayta ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi va buning natijasida har yili 26-32 million dollarlik mahsulotni eksport qilish rejalashtirilmoqda. Ishlab chiqarish jarayoniga 500 nafardan ortiq kishi jalb etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Qo'qon shahridagi bo'sh yotgan binolarining xususiylashtirilishi bu borada yana bir qiziqarli misol bo'la oladi. Bu binolar bo'lajak investorga 740 million so'mga sotilgan. Investor, o'z navbatida, ikki yil davomida qiymati 3,8 million dollar miqdorida investitsiya kiritish majburiyatini zimmasiga olgan. Ayni paytda loyiha nihoyasiga etkazilmoqda. Uning amalga oshirilishi natijasida avtomobilsozlik sanoati uchun yiliga bir million dona import o'rnini bosadigan butlovchi materiallar ishlab chiqarish quvvatiga ega qo'shma korxonani tashkil etiladi. Korxonada 50 nafardan ortiq kishi ish bilan ta'minlanadi.

Iqtisodiyotimiz real sektoriga nafaqat xorijiy investorlarni, balki o'z kapitalimizni ham jalb qilish maqsadida hukumatimizning qaroriga binoan mamlakatimizning barcha hududlarida nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan, ammo bo'sh yotgan, faoliyat ko'rsatmayotgan va qurilishi nihoyasiga etkazilmagan davlat mulki ob'ektlari inventarizatsiya qilindi.

Uning yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yilning 8 iyulida «Ishlamayotgan, bo'sh turgan va qurilishi tugallanmagan davlat mulki ob'ektlari negizida nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatga muvofiq, 57 davlat mulki ob'ekti tender savdolarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya majburiyatlarini olish sharti bilan nolga teng qiymatda sotilishi lozim edi.

Bu tez orada o'z natijasini berdi. Tender savdolarining dastlabki kunida bankrotga uchragan «Mang'it yigiruv-to'quv fabrikasi» korxonasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi) sotildi. Tanlov savdosi ishtirokchilarining biznes-loyihalarini ko'rib chiqish natijasida ob'ekt qismlarga bo'lingan holda ikki investorga sotildi. Investorlar birgalikda 29 million dollar va 1 milliard so'm miqdorida investitsiya kiritish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Buning natijasida 330 nafardan ortiq kishi doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, «Buxoropaxtasanoat» korxonasiga bankrotga uchragan «Buxoroteks» ochiq aksiyadorlik jamiyati korxonasi sotildi. Investor 250 ish o'rni yaratish va 23 milliard so'm investitsiya kiritish majburiyatini o'z zimmasiga oldi.

Muxtasar aytganda, Vazirlar Mahkamasining yuqorida qayd etilgan qarorining bajarilishi yaxshi samara bermoqda. 2011 yilda sotilgan 17 ob'ekt bo'yicha investorlar tomonidan qiymati 40,7 milliard so'm va 67,8 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritish majburiyatlari olingan. Ushbu ob'ektlar negizida nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan zamonaviy korxonalar tashkil etildi va 2200 nafardan ortiq kishi ish bilan ta'minlandi<sup>14</sup>.

2011 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida» qabul qilingan qaroriga muvofiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining davlat xaridlari tizimida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi<sup>15</sup>.

Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari rahbarlarining e'tibori «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturining barcha tadbirlari amalga bajarilishini so'zsiz ta'minlash, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni har taraflama qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirildi. Mazkur masalani tegishli vazirliklar va idoralarga maksimal darajada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, xususiy mulkning ustuvorligini mustahkamlash, tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirish, ruxsat berish tartibotlarini va tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat organlarining aralashuvini keskin qisqartirishni ta'minlash yuzasidan qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.

---

<sup>14</sup> Manba: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

<sup>15</sup> <http://infoman.uz/2011/04/vm-2011/>

## 2.2. Kichik biznes korxonalari moliyasini boshkarishda kreditning roli va uni tahlili

Kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish va ularni amalga oshirishda bank krediti alohida ahamiyatga ega. Chunki loyihalarni amalga oshirish va rivojlantirishi uchun, birinchi galda, mablag' zarur bo'ladi. Bunday mablag'ga ega bo'lishning asosiy yo'llaridan biri kredit olishdir. Bank krediti orqali ilg'or texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish joriy etiladi, yangidan-yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi, shuningdek yangi korxonalarining barpo etilishiga, yangi ish o'rinlarining ko'payishiga erishiladi.

Jumladan, yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Imtiyozli kredit jamg'armasining resurs bazasini ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Buning natijasida kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar miqdori yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda


Kichik korxonalarining moliyalashtirilishi quyidagi ichki va tashqi manbalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- moliyalashtirishning tashqi manbalari – byudjet mablag'lari, maqsadli bank kreditlari, aktsiyalar emissiyasining mablag'lari, lizing, tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari, ma'naviy boyliklar, byudjetdan tashqari va notijorat jamg'armalar mablag'lari;

- moliyalashtirishning ichki manbalari – foyda, amortizatsiya to'lovlari, to'plangan pullar va tadbirkorlarning jamg'armalari, sug'urta faoliyatidan olingan mablag'lardan iboratdir.

- rasm

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori (mlrd.so'm)



Manba: Prezidentimiz I. Karimov ma'ruzalari asosida tayorlandi.

- rasm ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga banklarning ajratgan kreditlari salmog'i yildan yilga oshib bormoqda. Xususan ushbu ko'rsatkich 2007 yilda 744,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2011 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 3510,0 mlrd so'mni tashkil etgan va buni biz ijobiy holat sifatida qarashimiz mumkin.

Hozirgi paytda O'zbekistonda kichik biznesni majmuaviy jihatdan moliyaviy qo'llab – quvvatlashning davlat moliyaviy resurslari, xorijda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan usul va dastaklar, shuningdek, mahalliy sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan manbalar hamda chet el kredit tizimlarini qo'llovchi yagona tizimi ishlab chiqilgan.

Hozirgi paytda kichik biznes tomonidan bank xizmatlariga talabning barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun, bank tizimining asosiy vazifasi kredit berish tartibini takomillashtirish hamda iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishni kengaytirish va qayta tashkil etilayotgan korxonalarni qo'llab – quvvatlashga qaratilgan kichik biznes rivojini rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va qo'llash hisoblanadi. Kredit talabnomasi va hujjatlar aylanishi hajmini ko'rib chiqish, muddatlarini qisqartirish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqildi. Kreditlashning yangi tartiblariga muvofiq, kredit talabnomasini rasmiylashtirish uchun kichik biznes sub'ektlariga faqatgina ikkita va uchta hujjat talab etiladi. Talabnomalarni ko'rib chiqish muddatlari besh – o'n ish kunigacha qisqartirildi. Ushbu chora sansalorlikni keskin kamaytirishga va suiste'molchilikni bartaraf qilishga imkon berdi. Natijada, juda ko'p tadbirkorlar kerakli moliyaviy manbalaraga ega bo'lishdi.

O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarini tashqi moliyalashtirishning bir nechta imtiyozli mexanizmlari mavjud.



1. Banklar tomonidan byudjetdan tashqari jamg'armalar orqali kreditlash. Kreditlashning bu turida tijorat banklari qarzlarni (ssuda) o'z mablag'lari hisobiga emas, balki ish bilan band etishga ko'maklashish jamg'armasi, dehqon va fermer xo'jaliklariga ko'maklashish jamg'armasi va boshqa tashkilotlar mablag'lari hisobiga beradilar. Bu jamg'armalar korxonalarining o'zlari bergan chegirmalari, davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar va davlat byudjetiga tushayotgan boshqa foydalar hisobiga moliyalashtiriladi. Jamg'armalarning mablag'lari banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlariga subsidiyali kreditlar shaklida beriladi. Kreditning maqsadiga, imtiyozli foiz stavkalariga qarab kreditlar beriladi, lekin har qanday sharoitda u Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalaridan ancha kichik bo'ladi.

2. Imtiyozli kreditlash – jamg'armalar tomonidan o'z daromadlarini bir qismini zaxira qilish yo'li bilan tashkil etiladi. Ushbu mablag'lardan berilgan kreditlar evaziga, hukumat banklarga soliq solishda boshqa imtiyozlar taqdim etadi. Ushbu jamg'armalar hisobiga berilgan kreditlarga, kreditning haqiqiy berilgan muddatiga foiz stavkalari Markaziy bank belgilagan qayta moliyalashtirish stavkalarining 50 foizdan oshmagan miqdorida bo'ladi va tadbirkorlik sub'ektlariga investitsion loyihalarni moliyalashtirish foydali bo'ladigan talablarda beriladi.

3. Kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlash. Moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar (kreditlash bankning imtiyozli kreditlashning zaxiralangan mablag'lari hisobiga emas, o'z mablag'lari hisobiga bajarilayotgan bo'lsa ham), mikrokreditlashning foiz stavkalari Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkalaridan oshmasligi kerak. Xususi sektor korxonalari uchun mikrokreditlashning yana bir afzalligi shundaki, bunda ushbu shakldagi kreditlarning 50 foizgacha mablag'lari naqd pul hisobida berilishi mumkin. Boshqa tomondan, hatto boshqa mamlakatlarda mikromoliyalashtirishdan foydalanishning klassik yo'nalishi mavjud bo'lsa ham, mikrokreditlardan savdo faoliyatini moliyalashtirish uchun foydalanib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 24 avgustdagi PF-4354-sonli Farmoni va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi.

Xususan:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddati uch bank ish kunidan oshmaydigan muddat qilib belgilandi;

- tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishda kreditning umumiy summasida qarz oluvchining garov ta'minotini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish huquqi berildi;

kichik biznes sub'ektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisobvaraq ochganlik uchun to'lov undirish bekor qilindi;

imtiyozli kreditlash hajmini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida tijorat banklarining Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar berishdan oladigan daromadlari 2016 yilning 1 yanvariga qadar foyda solig'idan ozod qilindi.

Davlat dasturi doirasida tijorat banklarining barcha filiallarida "Tadbirkorlar xonasi" tashkil etildi, banklarning muntazam yangilab turiladigan veb-sayt va portallari orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga axborot xizmati ko'rsatish tizimi kengaytirildi.

Yaratilgan sharoit va imtiyozlar natijasida tijorat banklari tomonidan mazkur soha vakillariga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami kengayib, sifati oshib bormoqda.

Jumladan, 2011 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 1,5 barobarga oshib, 4,0 trln. so'mni tashkil etdi va mazkur mablag'lar hisobiga hududlarda 291 mingtadan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Ajratilgan mikrokreditlar hajmi 752,3 mlrd. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich 1,5 barobarga o'sdi.

Davlat dasturiga muvofiq, turli soha va yo'nalishlar uchun kreditlar ajratish istiqbolli ko'rsatkichlarining bajarilishi ta'minlandi. Jumladan:

- oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarga 712,4 mlrd. so'm;
- nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlariga 724,0 mlrd. so'm;
- xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 351,1 mlrd. so'm;
- kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga o'z biznesini tashkil etish uchun imtiyozli shartlar asosida 25,6 mlrd. so'mlik mikrokreditlar;
- shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga yirik shoxli qoramol sotib olish uchun 59,7 mlrd. so'm;
- tijorat banklarida tashkil etilgan Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armalari mablag'lari hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalariga 31,2 mlrd. so'm;
- oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 54,1 mlrd. so'm miqdoridagi kreditlar ajratildi.

Shuningdek, "Mikrokreditbank" ATB tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 159,7 mlrd. so'mlik mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatildi.

Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar hukumatlarining 143,4 mln. AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit liniyalari va grantlari o'zlashtirildi.

Naqd pulsiz chakana hisob-kitoblar – bank plastik kartochkalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2012 yil 1 yanvar holatiga muomalaga chiqarilgan bank kartochkalari soni 8,3 mln.

donaga etdi, chakana savdo va pullik xizmat ko'rsatish ob'ektlariga o'rnatilgan to'lov terminallari soni esa qariyb 100 mingtani tashkil qildi<sup>16</sup>.

O'z navbatida, 2011 yil davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 9,2 trln. so'mni tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 1,6 barobarga oshdi.

Savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini to'liq to'lov terminallari bilan jihozlash, aholini etarli miqdorda plastik kartochkalar bilan ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar va to'lov terminallarini respublikamizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, bank kartochkalari orqali to'lovlarning o'tkazilishini yanada tezlashtirish maqsadida, Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi uskuna va dasturiy ta'minotlari yangilanib, «Uzkart» banklararo to'lov tizimini yangi texnologik platformasiga o'tkazish ishlari jadal olib borilmoqda

Kreditning istiqbolli va o'z vaqtida ishlatiladigan turi lizingdir. Bizning nazarimizda tijorat banklarida kredit olish kichik korxonalar uchun kafolatlash tizimini tashkil qilishi bilan bir qatorda, lizing to'lovlarini qaytarishda ham kafolat tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo'lardi. Lizingning asosiy afzalligi shundaki, o'z ishini boshlayotgan tadbirkor asosiy vositasini sotib olish uchun pul mablag'larining kerakli qismiga ega bo'lishi mumkin. Lizing korxonaga kerakli asbob – uskuna olishga imkoniyat beradi.

O'zbekistonda lizing litsenziyalangan faoliyat turlariga kirmaydi, shuning uchun lizing muomalalari bilan faqatgina maxsus kompaniyalar emas, balki tijorat banklari ham shug'ullanishadi.

Bizning fikrimizcha, bir tomondan, ma'lum vaqt ichida korxonalar ixtiyorida bo'lgan barcha pul mablag'lari moliyaviy mablag'lar hisoblanadi va korxonalar ulardan bir xilda samarali foydalanishlari lozim; ikkinchi tomondan esa korxonaning o'z va qarz mablag'larining manbalari alohida hisobga olinmog'i lozim. Korxonalar moliyaviy mablag'lari manbalarining o'z va qarz mablag'larga bo'linishi mulk egasi manfaatlarini nuqtai-nazaridan qulay hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning samarasi, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish natijasi, ko'p hollarda, kichik biznesni keng rivojlantirish bilan uzviy bog'lanib bormoqda. Bu sohani jadal rivojlantirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes investitsiya loyihalarini byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobiga moliyalashtirish alohida ahamiyatga ega.

Shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining shiddatliliigi va o'tish davriga xos ob'ektiv ziddiyatlarning mavjudligi ko'pchilik korxonalarni to'lovga layoqatsizlikka va inqirozga yuz tutishga olib keladi. Bu sharoitlarda moliyaviy mablag'larning mohiyatini faqatgina pul mablag'larining tashkil topish manbai sifatida tushunish ularning bozor iqtisodiyoti shakllanishi va tadbirkorlik faoliyatining taraqqiyotidagi roli va ahamiyatini to'la yoritish olish imkonini

---

<sup>16</sup> “2011 йилдаги макроиктисодий ҳолат ва реал сектор таҳлили” Марказий банкнинг йиллик ҳисоботи. [www.cbr.uz](http://www.cbr.uz).



		sum		sum		sum		boshiga nisbatan %
1	Uzoq muddatli aktivlar	80 819	71,8	85 889	59,4	5 070	-12,4	4,5
2	Oborot aktivlar	31 718	28,2	58 615	40,6	26 897	12,4	23,9
	Shu jumladan							
a)	Zaxira va xarajatlar (140+190+200)	29 106	25,9	26 356	18,2	-2 750	-7,6	-2,4
b)	Pul mabag'lari va qimmatli qog'ozlar (320+370+380)	36	0,0	32 259	22,3	32 223	22,3	28,6
v)	Debitorlar(210+310)	2 576	2,3	-	-	-2 576	-2,3	-2,3
	Balans aktivining JAMI	112537	100,0	144 504	100,0	31 967	-	28,4

Manba: "Orzu" MChJning buxgalteriya balansi ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada aktivlari yil boshiga nisbatan 31 mln. 967 ming so'mga yoki 28.4% ga ko'paydi. Korxonada faoliyati uchun korxonada aktivlarining ko'payganligi ijobiy holdir. Aktivning ko'payishi oborot aktivlari hisobiga bo'lgan yil ohiriga kelib 26 mln. 897 ming so'mga o'sgan. Uning jami aktivdagi salmog'i 12.4 % ga ko'paygan. Zaxira va xarajatlar yil boshiga nisbatan 2 mln. 750 ming so'mga kamaygan. Bu yil boshiga nisbatan 2.4% ga kamaygan. Jami aktivlar tarkibiga ko'ra, zaxira va xarajatlar yil boshiga nisbatan 7.6% ga kamaygan, uzoq muddatli aktivlar ham yil boshiga nisbatan 12.4% ga kamaygan. Bu korxonada faoliyati uchun salbiy holatdir.

Korxonada mulki va mablag'larning kelib chikish manbalari balansning passivida kursatiladi. Bular uziga karashli va chetdan jalb kilingan manbalarga ajratiladi. Jalb kilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik karzlari kiradi.

Passiv xam xuddi aktiv kism kabi ikki bulimdan iborat. Passivning «Ustav kapitali» bandida xujalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag'lari kursatiladi. xissadorlik jamiyatlarida esa xar bir katnashchining uushgan xissasi ustav fondida kursatiladi. Divident sifatida tausimlanadigan sof foyda xajmi xam kushilgan xissaga karab aniklanadi. Demak, ustav fondi bozor iktisodi sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning uziga tegishli mablag'i va aksionerlarning kushgan xissasidan iborat buladi. xar bir katnashchi shaxsiy xissasiga karab korxonaning xujalik va moliyaviy faoliyatiga aralashadi. xamkorlikdagi, xissadorlik, kushma va kichik korxonalarining nizom jamg'armasi xajmi katnashchilar kushgan badallar mikdoriga bog'lik buladi. II bulim passivini urganish xam katta axamiyatga ega. Bu bulimda kiska muddatli bank kreditlari va karzlarni, korxonada ishchi-xizmatchilari uchun bank kreditlari, tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun, berilgan veksellar, mexnatga xak tulash buyicha, ijtimoiy ximoyalash, suYourta, ta'minot, mulkiy va shaxsiy suYourta, byudjet bilan, undan tashkari tulovlar, shu'ba korxonalarini va boshkalar bilan buladigan xisob-kitoblar kursatiladi. Bulardan tashkari xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar,

kuzda tutilgan daromadlar, xarajatlar va tulovlar zaxirasi, dargumon karzlar buyicha zaxiralar va boshka kiska muddatli passivlar xam ushbu bulimda aks ettiriladi. Shu bulim passivida juda kup buxgalteriya xisobining schetlari kredit koldiYoi keltiriladi. Korxonona balansini urganishda asosiy e'tibor yil boshida utgan davrda mulk va mablaYolarning kanchalik uzgarganligi xamda aktivdagi xar bir band passivdagi manbalarni kanchalik ta'minlaganligiga karatiladi

2-jadval

“Orzu” MChJ ning buxgalteriya balansi passiv moddalariningtaxlili

№	Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
		ming sum	%	ming sum	%	Ming sum	%	Yil boshiga nisbatan %
	1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1	O'zlik mablag'lari manbalari	87 288	77,6	105 147	72,8	17 859	-4,8	15,9
2	Majburiyatlar	25 249	22,4	39 357	27,2	14 108	4,8	12,5
	Shu jumladan							
a)	uzoq muddatli kredit va qarzarlar (570.580.590)	-	-	-			-	-
b)	kiska muddatli kredit va karzlar 730.740	20 000	17,8	-		-20 000	-17,8	-17,8
v)	Kreditorlik qarzlari (770)	5 249	5	39 357	27	34 108	23	65,0
	Balans passivining JAMI	112 537	100,0	144 504	100,0	31 967	0,0	28,4

Manba: “Orzu” MChJning buxgalteriya balansi ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, jami mablag'lar yil boshiga nisbatan 31 mln. 967 ming so'mga yoki 28.4% ga ko'paygan. O'zlik mablag'larining manbalari hisobot yili boshiga nisbatan 7 mln. 859 ming so'm ko'paygan. Majburiyatlar ham yil boshiga nisbatan 14 mln. 108 ming so'mga ko'paygan. Jami manbalarga nisbatan majburiyatlar bo'yicha rejaning bajarilishi 4.8 % ko'paygan. Korxonaning uzoq muddatli kredit va qarzarlar mavjud emas. Qisqa muddatli kredit va qarzarlar jami yil boshiga nisbatan 17.8 % kamaygan. Kreditorlik qarzarlar 34 mln. 108 ming so'mga ko'paygan. Jami yil boshiga nisbatan bu ko'rsatkich 65% ga faoliyati uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Balans ma’limotlariga qarab korxonani aylanma mablag’lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligini o’rganilad. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarni oliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layoqatlilikini aniqlashda o’zlik manbalar bilan ta’minlanganlik ko’rsatkichi muhim ahamiyatga egadir. Quyidagi jadvalda zahira va xarajatlarni qoplash o’zlik manbalarining etarililigini aniqlash uslubi keltirilgan.

3-jadval

“Orzu” MChJ ning zaxira va xarajatlarini koplashga tegishli manbalar bilan ta’minlanganligining taxlili

№	Ko’rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farki
	1	2	3	4=3-2
1	O’zlik mablaglarning manbalari	87 288	105 147	17 859
2	Uzok muddatli aktivlar	80 819	85 889	5 070
3	Zaxira va xarajatlarni koplashga tegishli uzlik manbalari (1-2)	6 469	19 258	12 789
4	Uzok muddatli kredit va karzlar	-	-	-
5	Zaxira va xarajatlarni koplashga tegishli uzlik va uzok muddatli karz mablaglari (3+4)	6 469	19 258	12 789
6	Kiska muddatli kredit va karzlar	20 000	-	- 20 000
7	Zaxira va xarajatlarni koplashga tegishli jami manbalar (5+6)	26 469	19 258	-7 211
8	Zaxira va xarajatlarning jami	29 106	26 356	-2 750
9	Zaxira va xarajatlarni koplashga uzlik manbalarning etariligi yoki etishmasligi (3-8)	- 22 637	-7 098	-15 539
10	Zaxira va xarajatlarni koplashga uzlik va uzok muddatli karz manbalarining etariligi yoki etishmasligi (5-8)	- 22 637	-7 098	-15 539
11	Zaxira va xarajatlarni koplashga jami manbalarning etariligi yoki etishmasligi (7-8)	-2 637	-7 098	-4 461

Manba: “Orzu” MChJning buxgalteriya balansi ma’lumotlari

Ma’lumotlarga ko’ra, korxonada hisobot davri boshida zahira va xarajatlarni qoplashga o’zlik manbalari 22 mln. 637 ming so’m etishmagan bo’lsa: yil ohirida bu ko’rsatkich 7 mln 98 ming so’m etmaganligini ko’rishimiz mumkin. Yil boshiga nisbatan bu ko’rsatkich 15 mln. 539 ming so’mga kamaygan.

Korxonada hisobot davri boshqa zahira va xarajatlarni qoplash nobarqaror, ya’ni korxonada zaxira va xarajatlarning faqatgina qisqa muddatli qarz manbalari hisobiga qoplay olgan halos. Korxonada zaxiralari va xarajatlarni qoplashga o’zlikmanbalari 22 mln. 637 ming so’mga etishmagan. Hisobot yil ohirida zahira

va xarajatlarni 7 mln. 98 ming so'mga qoplanmagan. Korxonada qisqa muddatli qarzlarni yil oxirida 7 mln. 98 ming so'mga kamaygan. Bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 4 mln. 461 ming so'mga kamaygan. Bu holat korxonaning moliyaviy barqarorlik holati to'raligicha yaxshilanmagan. Korxonada faoliyati uchun bu holatni salbiy holat deb baholash mumkin.

3- bob Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarishni takomillashtirish yo'llari

Jahon amaliyoti rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va



mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanliklarini tasdiqlamoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi va bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor bermoqdalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyasini boshqarish, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni raobatbardosh va sifatli masulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda aoli daromadlarini ko'paytirish va farovonligini oshirishning muhim omili, mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq masadga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish masadida, shuningdek, 2011 yil O'zbekiston Respublikasida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan quyidagi yo'nalishlarga asoslangan Davlat dasturi qabul qilingan.<sup>17</sup> Ular quyidagilar xisoblanadi:

- Mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tadbirkorlikka ko'pro erkinlik berish, davlatning bosharuv funktsiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to'siq va g'ovlarni olib tashlash, kichik biznes sub'ektlarining moliya-kredit va xom ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan masulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishini ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;

- davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisartirish;

- kichik korxonalar tashkil ilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish, kichik biznes sub'ektlarini qurish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, noturarjoy xonalari va zarur er uchastkalarini ajratib berish borasidagi masalalarni hal etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni qabul qilish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va unifikatsiyalash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlariga, boshlanich sarmoyani shakllantirishga kreditlar ajratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun o'rta va uzoq muddatli kreditlar berish;

---

<sup>17</sup> Манба: "Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik йили" Давлат дастури. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 14 декабрдаги Ф-3539-сон фармони, 2011 йил 7 феврал <http://gov.uz/uz/year/>

- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng jalb etish va yo'naltirish;

- sanoat tarmolarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilishini rabatlantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga, eksportga mo'ljallangan mahsulotini jahon va mintaqaviy bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini axborot bilan ta'minlash, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarida ularga konsultativ ko'mak berish tizimini yanada rivojlantirish xisoblanadi.

Shuningdek, ushbu dasturda belgilangan tadbirlarni sifatli amalga oshirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi xam belgilab qo'yilgan:

- tadbirkorlarning o'z ishini ochishi bilan bog'liq masalalarda sodir bo'layotgan aniq o'zgarishlarga;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari – energiya va gaz ta'minoti, suv va issiqlik ta'minoti hamda boshqa tarmoqlarga ulanishi bo'yicha shart-sharoitlarning yaxshilanishi va muddatlari qisqartirilishiga;

- tadbirkorlik sub'ektlariga er uchastkalari, shuningdek, noturarjoy xonalar ajratib berish bilan bog'liq holat qanchalik yaxshilanganiga;

- kichik biznes sub'ektlari faoliyatini tekshirish va bosha ortiqcha cheklashlarni, davlat va nazorat organlarining tadbirkorlar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini qisartirish borasidagi ishlarning ahvoli qay tarzda o'zgarayotganiga;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilishi bilan bog'liq ishlarning ahvoli qanchalik o'zgarganiga alohida e'tibor qaratish kabilardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi to'g'risida» 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1474-son qaroriga muvofiq hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligining tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliqdan 2011 yil 1 apreldan boshlab 2016 yilning 1 yanvarigacha ozod etish taklifi qabul qilindi, shu bilan birga tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi

mablag'lari asosan olis va etib borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari keragidan ortiq bo'lgan tumanlar hamda shaharlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohaslarida, ishlab chiqarish mikrofirmalari, kichik korxonalar, dehqon hamda fermer xo'jaliklarida yuqori texnologik va innovatsion loyihalarni moliyalash uchun ajratiladi.<sup>18</sup>

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani natijasida uning iqtisodiyotimizdagi ulushi tobora ortib, jamiyat ravnaqi, aholi farovonligini yuksaltirishdagi o'rni mustahkamlanmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yilida bu borada tadbirkorlar uchun yanada keng sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yil 4 aprelda qabul qilingan "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni mazkur yo'nalishdagi yana bir muhim amaliy qadam bo'ldi.

Shu ma'noda tadbirkorlarga keng imkoniyat yaratish masalasi davlatimiz rahbarining doimiy e'tiboridadir. Ayniqsa, tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirish yildan-yilga takomillashib, qisqartirilayotgani muhim ahamiyat kasb etayotir. Prezidentimizning nomi qayd etilgan farmoni bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishda muhim omil bo'lishi shubhasiz. Chunki tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi yanada kuchaytiriladi. Endilikda davlat va nazorat organlarining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvi keskin qisqartiriladi, tekshirishlarni tashkil qilish tizimi yanada takomillashtiriladi va mansabdor shaxslarning ular faoliyatiga asossiz aralashuvi uchun javobgarligi yanada kuchayadi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishning tartibga solinishi barobarida tekshirishlar soni yildan-yilga qisqartirilmoqda. 2001 yilda 226 mingdan ko'proq tadbirkorlik sub'ekti faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, o'sha yili ular faoliyatini tekshirishlar soni qariyb 75 mingtani tashkil etgan. 2011 yilda esa tadbirkorlik sub'ektlari soni 470 mingdan oshgani holda mavjud sub'ektlarning atigi bir foizida rejali tekshirishlar o'tkazilishi mo'ljallangan. Davlatimiz rahbarining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan bu raqam yanada qisqarishi kutilmoqda.

Aytish joizki, tekshirishlarning kamayishi tadbirkorlarning vaqtini behuda olish, kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish kabi holatlarga barham berib, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun yanada kengroq imkoniyat yaratadi.

Prezidentimiz Islom Karimovning "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga

---

<sup>18</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори Кичик бизнес ва хуссий тadbirkorlik субъектларига кредит беришни кўпайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 10-11-сон, 98-модда)www.lex.uz

muvofig bu borada yangi me'yorlar belgilandi. Jumladan, yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab dastlabki uch yil mobaynida rejali soliq tekshirishlaridan o'tkazilmaydi. Aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish, shuningdek, byudjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq tekshirishlar bundan mustasno<sup>19</sup>.

Farmonning yana bir muhim jihati shundan iboratki, 2011 yilning 1 apreldan to 2014 yilning 1 aprelegacha bo'lgan davrda soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan, shuningdek, ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini soliq sohasida tekshirish taqiqlanadi. Yuridik shaxslarni tugatish chog'ida, qo'zg'atilgan jinoiy ishlar doirasida, shuningdek, byudjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar hamda resurslardan foydalanish bilan bog'liq rejadan tashqari tekshirishlar bundan mustasnodir.

Keyingi yillarda mamlakatimizning eng yirik va rivojlangan banklari tomonidan ham kichik biznes korxonalarini moliyalashtirishda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu banklar o'z mablag'lari hisobidan hamda xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy banklarning kredit liniyalari orqali kichik biznes loyihalarni moliyalashtirishda faol qatnashmoqdalar. Umuman olganda, loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlariga tayanish bozor iqtisodiyoti sharoitida ham odatiy, ham majburiy holatdir.

Jahon amaliyoti rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanliklarini tasdiqlamoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi va bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqdalar.

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham mulkdorlar sinfini vujudga keltirishga yordam beradigan kichik biznesni rivojlantirishdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat hayotining barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois O'zbekiston o'zining mustaqilligi asosida yangi iqtisodiy islohotlar yo'lini joriy etish va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarini keng rivojlantirib, o'zining qonun-qoidalariga suyangan holda tadbirkor, ishbilarmon va biznesmen kishilarga qulay shart-sharoitlar yaratib berishga intilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ko'ngilgdagidek ta'sis etib, boshqarilayotgan bo'lsa, mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta foyda keltirib, iqtisodiy rivojlanishimizga katta hissa qo'shadi.

---

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Тadbirkorlik субъектларини рўйхатига олиш ва ҳисобга қўйилишининг ҳабардор қилиш тартиби тўғрисидаги низомига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 12-13-сон, 114-модда)

## Xulosa va takliflar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan taklif etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da hozirgi kunda yurtimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektor ta'minlayotgani qayd etilgan. Shu munosabat bilan 1991 yilda qabul qilingan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi qonunni bugun qayta ko'rib chiqish va unga qo'shimchalar kiritish talab etilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini moliyalashtirishda, boshqarishda ba'zi bir rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribalari tasdiqlashicha, yirik kompaniyalardan farqli ravishda kichik korxonalar qarz sarmoyalariga emas, balki, asosan o'z mablag'lariga tayanadilar. Shunday bo'lsada, tez rivojlanayotgan firmalar jalb qilinadagan mablag'lar hisobiga qisman moliyalanishga ehtiyoj sezadi. Bu holda kredit imtiyozlari muhim moliyalashtirish manbai bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2011 yil 7 fevraldagi “Kichik biznes va xusssiy tadbirkorlik sub’ektlariga kredit berishni ko’paytirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori va 2011 yil 4 aprelda qabul qilingan “Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risi”da Farmoni ushbu soxani respublikamizda qo’llab quvvatlash uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni yana bir karra isbotlaydi.

O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalar moliyasini boshqarish, qo’llab-quvvatlash, xamda ularni samaradorligini oshirish borasida quyidagi xulosalarni berish zarur deb o’ylaymiz:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalariga yangi texnika va texnologiyalarni jalb qilish orqali ular ishlab chiqarish faoliyatini jadallashtirish naqadar muhimdir;

- davlat mablag’laridan oqilona foydalanish, xususiy kapitalni jalb etish va korxonalarining o’z jamg’armalarini ishga solish asosida ta’sirchan moliya-kredit mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni, eksport hajmini ko’paytirish, mahalliy mineral xom ashyo resurslaridan yaxshiroq foydalanishni ko’zda tutuvchi investitsiya loyihalarini ro’yobga chiqarishga ko’maklashish;

- minitexnika va asbob-texnikalar lizingini, garov operatsiyalarini, o’zaro kreditlashni faol joriy etishga ko’maklashish;

- hududiy jihatdan yaqin joylashgan fermer va dehqon xo’jaliklariga xizmat qiladigan va ularning muassislari bo’lgan kredit ittifoqlari, o’zaro kreditlash jamiyatlari tarmog’ini vujudga keltirishga ko’maklashish;

- o’z qatnashchilarining pay badallari hisobidan kredit resurslari hajmini kengaytirish uchun kredit uyushmalarini tashkil etishni faollashtirish zarur;

- uchinchi shaxslarning kafilligi hisobidan kreditlar qaytarilishi kafolatlarini ta’minlashning Yaponiyada kichik biznesni kreditlash amaliyotidagidek sezilarli natijalar bergan mexanizmni joriy etish;

- istiqbolda xom ashyo resurslarini qayta ishlash va eksportni ko’paytirish uchun zamonaviy texnologiyalar sotib olishda kichik biznes ehtiyojlarini ta’minlaydigan hajmlarda xorijiy investitsiyalarni bosqichma-bosqich jalb etish dasturini ishlab chiqishdir.

Aholining faol qismi o’z biznesini tashkil etishi va boshlashi uchun shart-sharoitlar yaratish, aholining ish bilan bandligini oshirishiga kumaklashadigan kichik va mikrobiznes, shuningdek, xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini rivojlantirish, boshqarish va yuzaga keladigan muammolarni barta’raf etish mamlakatimizda ushbu yo’nalishni yanada rivojlantirish uchun xizmat qilmog’i kerak.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan xolda quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

1. Moliyalashtirishning tijorat manbalari xususan xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari va davlat maqsadli jamg’armalarining kredit liniyalari hisobiga resurs bazasini shakllantirishga ko’maklashish;

2. Mikromoliyalashtirish xizmatlarini kengaytirish, xususan mikrolizing xizmatlarini rivojlantirish;

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga biznes reja va investitsiya loyihalarini sifatli darajada tuzishga va ularning biznes ko'nikmalarini oshirishga yordam beradigan konsalting firmalar faoliyatini hududlarda ham kengaytirish lozim;

4. Kichik biznes sub'ektlariga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida tashqi va ichki bozorlarni o'rganish va bozorlar to'g'risidagi axborotlarni etkazib beradigan maxsuslashtirilgan marketing kompaniyalarini tuzish kerak

5. Tadbirkorlik tuzilmalarini, ayniqsa, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ajratilgan kredit resurslaridan doimiy foydalanish mexanizmini soddalashtirish, erkinlashtirish, ularni xom ashyo resurslaridan foydalanishlariga yo'l ochish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham sotish bozorlarini kafolatlovchi tizimni yaratish kerak;

6. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishning huquqiy me'yoriy asoslarini takomillashtirish va yalpi ichki mahsulot tarkibida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) ulushini ko'paytirish maqsadida, yangi tashkil etilayotganlariga nisbatan dastlabki ikki yil davomida soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish me'yoriy miqdorlarini tatbiq etmaslik zarur.

7. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari investitsion faolligini oshirish maqsadida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash uchun yo'naltirilgan investitsiya xarajatlarini bir necha yil davomida yagona soliq to'lovi bazasidan to'liq chegirilishi maqsadga muvofiq. Bu, bir tomondan, mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish hajmi oshishiga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashda ijobiy samara beradi.

Tan olish kerakki, yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga mustaqillikning ilk yillaridan katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Bugun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur sohani rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga qaratilgan.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T., O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Soliq kodeksi" to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2007 yil, 52-son, (I).
3. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxonalar to'g'risida" gi Qonuni, 2003. 11 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kredit uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni, 2002. 4 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2000. 25 may.
6. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi O'zbekiston

- Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni, 2004. 26 avgust.
7. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlar soni qisqartirilganligi hamda tekshirishlar tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, 2006. 23 mart.
  8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 712 – II – sonli Farmoni, 2005 yil 14 iyun.
  9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1987 – sonli Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Farmoni, 2003, 30 avgust.
  10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvatlash mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-1207-sonli Farmoni, 2003 yil. 23 dekabr.
  11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2006 yil 23 mart.
  12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Germaniya rivojlanish banki banki kredit liniyasini o'zlashtirish to'g'risida "gi Qarori, 1999 yil 28 yanvar. 38 son.
  13. O'zbekiston Respublikasi prezidentining Farmoni. Tijorat banklarida aholi omonatlarinshartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida. "Qishloq hayoti" gazetasi. T.: 2008 yil 22 fevral, № 28 (7330).
  14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabr «O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1245-son Qarori.
  15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabr «O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1449-son Qarori.
  16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi. 2010 yil 14 dekabrda F-3539-son farmoni, 2011 yil 7 fevral <http://gov.uz/uz/year>
  17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2011 yil 4 aprelda qabul qilingan farmoni.
  18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 10-11-son, 98-modda)www.lex.uz
  19. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan



- yil bo'lad. – T.: O'zbekiston, 2012. – 35 b.
20. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
  21. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi, Xalq so'zi gazetasi. 2009 yil 13 fevral
  22. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009
  23. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin» Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
  24. Karimov I.A. “O'zbekiston buyuk kelajak sari”.- Toshkent: O'zbekiston, 1998 yil
  25. Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, mablag' va moliyaviy barkarorlik to'g'risida. T., O'zbekiston, 2005.
  26. Vazirlar Mahkamasida 2011-yilning 1 choragi yakunlari bo'yicha majlis bo'lib o'tdi. <http://infoman.uz/2011/04/vm-2011-1-chorak/>
  27. Abdullaev A., Muftaydinov Q., Aybeshov X. Kichik biznesni boshqarish. – T.: “Moliya” nao'riyoti, 2003. – 192 bet.
  28. Bekmurodov A.Sh., Gafurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustivor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. . T.: “TDIU”, 2007. 120 b.
  29. Vlasovoy . V.M Osnovi predprinimatelskoy deyatelnosti: ekonomicheskaya teoriya: Ucheb. posobie.– M.: «finans i statistika», 2002. – 192 str.
  30. Vahobov A., Mamatov B. Kichik tadbirkorlik loyihalarini kreditlash amaliyoti va muammolari. /Bozor, pul va kredit/, 5-son, 2006. 43-46 bet.
  31. Vahobov A.V. Xususiy mulk – iqtisodiyotning ishonchli poydevori. /Xalq so'zi/, 2003. 24 aprel, 87-son.
  32. G'ulomov S. S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: “Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxriri. 2002. – 369 bet.
  33. G'ozibekov D.G'. Mablag'larni moliyalashtirish masalalari. -T.: «Moliya» nashriyoti, 2003 yil. 332 bet.
  34. Olimjonov O. Mustaqil moliya siyosati buyuk kelajak asoslaridan biri // Xalq so'zi. 1998 yil mart.
  35. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet. O'quv qo'llanma. . T.: “Iqtisod-moliya”, 2008. 83 b.
  36. Malikov T.S. Mustaqillik yillarida soliq siyosati. // Jamiyat va boshqaruv. 2001. №2. 6-b.
  37. Musayev T. Musagaliev A. Soliq islohatlari iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosi. “Bozor pul va kredit” jurnali. 2007 yil №3. 28 bet
  38. Mamatov B.S. Kichik biznesni moliyalashtirishning chet el tajribasi. /Bozor, pul va kredit/, 2005. 4-son, 40-43 betlar.

- 39.Mamatov B.S. va boshqalar. Qishloqda kichik va o'rta biznes: taraqqiyot yo'llari, huquqiy kafolatlar. /O'zbekiston qishloq xo'jaligi/, 2002. 3-4 sonlari.
- 40.Mamatov B., Xo'jamqulov D. Lizing – kichik va o'rta biznesni kreditlash samarali vositasi. “Bozor, pul va kredit” ilmiy – amaliy oylik jurnali, № 8, 2002 yil. 48-49- betlar.
- 41.Mamatov B. Nosirov E. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyixalarini moliyalashtirish. TMI – 2007. 150 b.
42. Rube V.A. Maliy biznes: istoriya, teoriya, praktika. – M.: «TEIS», 2000
- 43.Rofiev Q. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki – tadbirkorlik rivojida. /Bank axborotnomasi/, 2003. 9 aprel, 15-16 son.
- 44.Irisov B. Yunusov R. O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlash istiqbollari.Pul, kredit va banklar, 2007 №9 23 bet.
- 45.Rofiev Q. Tadbirkorlik qo'llab-quvvatlanadi. /Xalq so'zi/, 2003. 11 aprel.
- 46.Rahmatullaev B. Byudjet –davlat iqtisodiy qudrati asosi. //Bozor, pul va kredit, 2001. №7.141.
- 47.Sarimsoqov E. Davlat xarajatlarini rejalashtirishning yangi shakli. “Bozor pul va kredit” jurnali. 2007 yil №5. 54 bet
- 48.Sobirjanova D., Boymatova U. Xususiy va kichik biznes menejmenti, O'quv qo'llanma. Toshkent. “Iqtisod-Moliya”-2007
- 49.Qosimova G. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish dolzarb masala. “Bozor pul va kredit” jurnali. 2007 yil №6. 30 bet

Internet saytlari:

50.www.lex.uz

51.www.gov.uz

52.www.uza.uz

53.www.infoman.uz